



TARBIYACHILARDAGI PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xudoyberdiyeva Tursunoy

Andijon Davlat Universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7302733>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2022

Accepted: 05th November 2022

Online: 08th November 2022

KEY WORDS

Zamonaviy, pedagog, salohiyat, komil shaxs, oila, uzliksiz, bolalar, vazifa, ta'lim, pedagog, faoliyat.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Bu jarayon esa yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish nafaqat yosh avlodni balki, jamiyatimiz tarqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tarbiyachi-mustaqqil O'zbekistonimizning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur bo'lgan buyuk allomalarni davomchisi bo'lgan kelajagimiz vorislarining tarbiyasi uchun javobgardirlar.

Maktabgacha ta'lim tizimida o'quv faoliyatini tashkil etishda mazmun, vositalar va usullar sifat va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgandagina komil inson asoslarini shakllantirishni ta'minlovchi ta'lim darajasiga erishish mumkin bo'ladi. Maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini yolga qo'yishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi

ABSTRACT

Maktabgacha ta'lim tizimida o'quv faoliyatini tashkil etishning mazmunini, vositalar va usullarini sifat va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgandagina komil inson asoslarini shakllantirishni ta'minlovchi ta'lim darajasiga erishish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog-tarbiyachining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bolalar kamoloti uchun zarurligi to'g'risida bayon qilingan fikr yuritilgan.

pedagog tarbiyachilarni o'z ustida tinimsiz izlanishlari, o'rganishlari eng muhim shartlardan biridir. Ta'lim jarayoni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi tarbiyachilar kasbiy faoliyati jarayonida "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi", Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari" da qo'yilgan talablarni hamda "Ilk qadam" davlat dasturini bajarishda innovatsion yondashuv ijobiy va samarali natija bera oladi. Tarbiyachilar barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk tarbiyachi



sifatida barkamol avlod tarbiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur¹

Jamiyatimiz madaniyati yuksalib va ta'lim-tarbiya taraqqiy etayotgan hozirgi rivojlanish jarayonida pedagog tarbiyachilarning innovatsion faoliyatiga zarurat tug'iladi. Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog-tarbiyachining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shartsharoitlarga bog'liq. Buning uchun tarbiyachining samimiy muloqoti, turli-tuman fikrlarga nisbatan beg'araz munosabati kiradi. Chunki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o'zgarishlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarbiyachi shaxsining kreativligini, ijodkorligini shakllantirish imkoniyatini beradi. "Ta'lim - bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish jarayoni bo'lib, bu bolaning shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi"²

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilar shuni anglab etishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o'zlariga bildirilgan samimiyatni his etadilar va sezadilar. Bolalarni ular bajargan ish natijalari uchun maqtash samimiyatni talab

etadi, o'zaro ta'sir tabiiy holda va majbur etmaslik tarzida bo'lishi lozim.

O'z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan tarbiyachi ishning sifat-samaradorligini oshiruvchi turli xil innovatsion jarayonlarni o'z faoliyatlariga tatbiq etishi, o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanishi ham mumkin. Bundan tashqari bola orqali ota-onalarga maktub jo'natish yo'li oilalar va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to'g'risidagi qisqagina xabar yoki raxmatnoma bo'lishi ham mumkin. Odatda ota-onalar bunday maktublarni qiziqish bilan o'qiydilar va javob yo'llashga harakat qiladilar. Bizlarga ma'lumki oila bu – qudratli kuch, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida kafolatlangan ijtimoiy institutdir. Tajribalar, ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bola tarbiyasi borasida maktabgacha ta'lim tashkilot va oilaning samarali hamkorligiga erishish tarbiyachining qay darajada pedagogik mahoratni egallaganligiga bog'liqdir. Demak, oila bilan hamkorlik shaxsni ilk tarbiyalash tizimi sifatida bolaning dunyoqarashi, ma'naviy olamining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bolalar oilada tarbiyalanadi, unda sodir bo'ladigan voqealar ularga katta ta'sir ko'rsatadi. Oila, bu – o'z bolalari hayotida doimiy ravishda ishtirok etadigan, ular to'g'risida qayg'uradigan, ularni yashash sharoitlarini yaratadigan, o'qitadigan, qarorlar qabul qiladigan odamlar jamoasidir. Bizlarga ma'lumki, shaxs faoliyati muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi. Agar inson farzandi ijtimoiy faoliyatning turli jarayonlarida ishtirok etsa, ushbu jarayon shaxsni rivojlantiradi, Shaxsning ichki dunyosi tashqi ta'sir natijasida rivojlanadi

¹ MAK'TABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. 2016-4b

² F. Qpodirova, Sh Toshpo'latoga, N. Qayumova, M. A'zamova. Maktabgacha pedagogika T. 2019 22b



va o'zgaradi. Ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyati hozirgi zamon ta'limiga xos. Bu bolalardagi bilimga qiziqish va bilish jaryonlarini rivojlantiradi. Buning uchun bolalarga beriladigan bilim, malaka, ko'nikmalar ma'lum izchillik bilan takomillashtirilib boriladi. Natijada bolalar kattalarning ko'rsatmasi va namunasi bo'yicha ish-harakatlarni bajarishga, oldin egallagan bilimlarini yangi faoliyatda qo'llashga, o'zining xulqi, ishi, hatti-harakatini nazorat qilish va to'g'ri baholashga o'rganib boradilar. Bolalarda topshiriqqa ongli munosabat shakllanadi. Tarbiyachining tushuntirish va ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, o'z ishida yaxshi natijaga intilishi, ma'lum tezlik va izchillikda diqqat bilan ishlash malakasi shakllanadi, ish qobiliyati ortadi. "Tarbiyachi, rahbar va tarbiyalanuvchi hamda ota-onalar o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor." ³

Hozirgi davrda ta'lim tizimida turli innovation texnologiyalardan foydalanish hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shunday ekan pedagog tarbiyachining eng buyuk burchi - xalqqa nafi tegadigan, aql-drokli, qobiliyatli bo'lgan komil shaxsni voyaga etkazish tarbiyachilarning oliy darajadagi vazifalaridan hisoblanadi. Hozirda mamalakatimizda

barchga sohalarda tatbiq etilayotgan yangiliklar ta'lim tizimiga shu jumladan maktabgacha ta'lim sohasiga ham tatbiq etilmoqda. O'z navbatida bu yangiliklar ta'lim tizimi oldiga, har bir soha uchun malakali, yetuk, salohiyatli kadrlar tayyorlash vazifasini tobora dolzarb qilib qo'yishi tabiiy. Taraqqiyot hamda shiddat bilan ilgarilayotgan hayotning o'zi maktabgacha ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan keng ko'lamlı vazifalarni o'zgartirib yobormoqda.

³ B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T-2013.[51b]



References:

1. Mamatqobilova Sh, Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati. .2016-[4b]
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M.A'zamova Maktabgacha pedagogika T-2019 y.[22]
3. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T-2013.[51b]
4. "Ilk qadam davlat dasturi" 2018 yil